



LOMONOSOV
MOSCOW STATE
UNIVERSITY



ZAPADOČESKÁ
UNIVERZITA
V PLZNI



Санкт-Петербургский
государственный
университет



УРАЛЬСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI
UNIVERSITETI INGLIZ TILI BIRINCHI FAKULTETI
UMUMIY TILSHUNOSLIK KAFEDRASI**

GLOBAL LINGVISTIKA: YANGI YONDASHUVLAR VA TADQIQOTLAR

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI



**29-aprel
2025-yil**

TOSHKENT SH. (O'ZBEKISTON)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
UMUMIY TILSHUNOSLIK KAFEDRASI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
“GLOBAL LINGVISTIKA: YANGI YONDASHUVLAR
VA TADQIQOTLAR”**

Toshkent - 2025

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli "O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to'g'risida" buyrug'i asosida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili birinchi fakulteti Umumiy tilshunoslik kafedrasidan tomonidan 2025-yil 29-aprel sanasida tashkil etilgan **"Global lingvistika: yangi yondashuvlar va tadqiqotlar"** masalalariga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan. Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plamidan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlar, talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

Madjidova Ra'no Urishevna

*O'zDJTU Umumiy tilshunoslik kafedrasidan mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor*

Tahrir hay'ati a'zolari:

Umirov Ixtiyor Ergashevich	– Umumiy tilshunoslik kafedrasidan professori v.b., filologiya fanlari nomzodi;
Narmurodova Gulnoza Ilxomovna	– Umumiy tilshunoslik kafedrasidan dotsenti, PhD;
Madaminova Nargiza Rajapbayevna	– Umumiy tilshunoslik kafedrasidan katta o'qituvchisi;
Nosirova Mubina Olimovna	– Umumiy tilshunoslik kafedrasidan katta o'qituvchisi;
Alimardanova Shaxlo Ashurmamatovna	– Umumiy tilshunoslik kafedrasidan katta o'qituvchisi;
Galyamova Alfiya Rinatovna	– Umumiy tilshunoslik kafedrasidan katta o'qituvchisi;
Yuldasheva Farog'at Farxadovna	– Umumiy tilshunoslik kafedrasidan o'qituvchisi;
Xakimbayeva Ozoda Kalandarovna	– Umumiy tilshunoslik kafedrasidan o'qituvchisi;
Xoliqova Dilnoza Musurmonovna	– Umumiy tilshunoslik kafedrasidan o'qituvchisi;
Salohiddinova Sayyora Alikulovna	– Umumiy tilshunoslik kafedrasidan o'qituvchisi;
Sharipova Maloxat Saidjanovna	– Umumiy tilshunoslik kafedrasidan o'qituvchisi;
Xujayev Dilshod G'ayratovich	– Umumiy tilshunoslik kafedrasidan o'qituvchisi.

INGLIZ BADIY DISKURSIDA KOGHERENSIYA TA'MINOTIDA KOGHEZIV BIRLIKLAR ISHTIROKI

Saidova Muxayyo Umedilloevna

Buxoro davlat universiteti

Buxoro, O'zbekiston

e-mail: m.u.saidova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz badiiy diskursida kogerensiya ta'minotida kogeziy birliklarning roli tahlil qilinib, tadqiqot doirasida matnning yaxlitligi va tushunarligini shakllantirishda lingvistik vositalarning o'rni funksional, pragmatik va kognitiv yondashuvlar nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Kogeziy birliklar, jumladan, referensiya, ellipsis, substitutsiya, bog'lovchilar, leksik koghezivlik orqali matn qismlari o'zaro bog'lanib, uni yaxlit va tushunarli qilish, shuningdek, badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlari va ularning o'quvchi tafakkuriga ta'siri tahlil qilinib, kogerensiyaning semantik va pragmatik jihatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: referensiya, ellipsis, substitutsiya, bog'lovchilar, leksik koghezivlik, sinonimiya, antonimiya

Ingliz badiiy diskursida kogherensiya ta'minotida kogheziv birliklarning roli juda muhimdir. Kogherensiya – matnning mazmuniy yaxlitligini, mantiqiy izchilligini ifodalaydigan tushuncha bo'lib, matnning umumiy maqsadi va asosiy mavzusini o'quvchiga tushunarli qilib yetkazishga xizmat qiladi. Kogheziv birliklar esa bu jarayonda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Ingliz tilidagi hikoya va roman diskursida kogherensiya ta'minotida kogheziv birliklarning ishtiroki matnning yaxlitligi va izchilligini saqlash uchun juda muhim hisoblanadi. Kogheziv birliklar matndagi elementlarni bir-biriga bog'lab, o'quvchi uchun ma'no oqimini aniqlab beradi. Kogherensiya esa hikoya yoki roman ichidagi voqealar, obrazlar va g'oyalar o'rtasidagi mantiqiy izchillikni ta'minlaydi.

Funksional yondashuv kogheziya va kogherensiyaning matnning grammatik va semantik bog'liqligi bilan bir qatorda uning amaliy va kommunikativ maqsadi bilan bog'liq ravishda o'rganadi. Ushbu yondashuv matnni faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki uning ishlatilish konteksti va foydalanuvchiga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi. Funktsional yondashuvni shakllantirgan olimlardan M.A.K.Halliday va Ruqiya Hasan bo'lib, ular kogeziya va kogerensiya nazariyasini matnshunoslikda chuqur o'rgangan va ularni ajratib, alohida ta'riflagan olimlar hisoblanadi. Halliday va Hasan matnning grammatik va leksik vositalar orqali yuzaki bog'liqligini ifodalaydi deb ta'riflab, kogeziyaning 5 asosiy turini ko'rsatadi: referentsiya (ishorat), ellipsis (gap qisqarishi), substitutsiya (bir elementni boshqa vosita bilan almashtirish), bog'lovchi vositalar (conjunctions) va leksik bog'liqlik (repetitsiya, sinonimiya, antonimiya). Adabiy asarlarning uslubiy xususiyatlari va voqea rivoji o'quvchi tomonidan tushunilishi uchun matn ichidagi elementlar uzviy bog'langan bo'lishi kerak. Bu bog'lanishni ta'minlashda kogheziv birliklar quyidagi funksiyalarga ega:

Referentsiya (ishoratlar) - badiiy asarda obrazlar, joylar yoki voqealarga qayta murojaat qilishda ishlatiladi. Bu ishoratlar yordamida o'quvchi oldingi matnni eslab qoladi va bog'liqlik his qiladi. Masalan, bir bobda muhim bir voqea sodir bo'ladi, keyingi boblarda esa o'sha voqea qayta eslatiladi. Olmoshlar, o'xshatishlar va nom berish orqali referentsiya qo'llaniladi: "John entered the room. *He* sat down." – Bu yerda "he" so'zi oldingi gapdagi "John"ga ishora qiladi.

Substitutsiya (almashtirish) - takrorlashdan qochish uchun bir so'z yoki iborani boshqa bir sinonim yoki o'xshash ibora bilan almashtirishdir. Bunda o'quvchi oldingi matnni yodda saqlagan holda yangi so'zga to'g'ri bog'laydi. "Tom wanted a drink, and *so* did Jane." – "so did Jane" iborasida oldingi gapdagi harakatni almashtiradi.

Ellipsis (qoldirish) - badiiy diskursda ellipsis orqali ayrim qismlar qoldiriladi, lekin o'quvchi bu qismlarni kontekst orqali o'zi to'ldiradi. Bu usul ko'pincha dialoglarda yoki qahramonlar o'rtasidagi tushunarli vaziyatlarda ishlatiladi. "Will you come?" – "I will [come]."

Bog'lovchilar (conjunctions) - hikoya va romanda bog'lovchilar voqealar va qahramonlar o'rtasidagi mantiqiy aloqani yaratishga yordam beradi. Bu bog'lovchilar harakatlar va fikrlar orasidagi munosabatni ko'rsatadi. "He wanted to leave, *but* he stayed." – Bu yerda "but" ziddiyatni ko'rsatib, ikki qarama-qarshi voqeani bog'laydi.

Leksik koghezivlik - bu turdagi koghezivlik leksikal birliklar, sinonimlar, antonimlar va boshqa o'xshash so'zlar orqali ta'minlanadi. Leksik koghezivlik matndagi asosiy mavzuni izchil ravishda rivojlantiradi. Masalan, hikoyadagi biror obraz yoki voqea turli-tuman iboralar orqali takroran ifodalanadi, shu bilan matn uzviy bog'lanadi. Masalan, bir qahramonni "brave man" (jasur odam), "hero" (qahramon) yoki "warrior" (jangchi) kabi sinonim so'zlar bilan tavsiflash orqali u haqidagi tasavvur mustahkamlanadi.

Badiiy diskursda kogheziv birliklar yordamida qahramonlar o'rtasidagi muloqotlar, voqealar rivoji va obrazlarning o'zaro aloqasi ravon va tushunarli bo'ladi. Kogheziv birliklar izchil voqea rivojini, shuningdek, asardagi mavzu va motivlarni aniqlashda yordam beradi. Badiiy asarlarda bu birliklar har doim ko'zga tashlanmasligi mumkin, lekin ular hikoya matnining yaxlitligi va tushunarligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Pragmatik yondashuv kogerensiyani matn tarkibiy qismlarining nafaqat lingvistik jihatdan bog'liq bo'lishi, balki o'quvchi yoki tinglovchining matnni qanday tushunishi va talqin qilishiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu nuqtayi nazardan, kogeziy birliklar quyidagi jihatlarda muhim rol o'ynaydi:

Deiksis va referentsiya - personajlar, joy va vaqt tushunchalarining aniq yoki kontekst asosida tushunarli bo'lishi matnning mantiqiylikini ta'minlaydi. Masalan, "he," "she," "this," "that" kabi so'zlar o'quvchiga ma'lumotlarni qayta ishlashda yordam beradi. "*John was very tired. He decided to go home early.*" Bu yerda "he" olmoshi referensial bog'lanishni ta'minlab, ikkinchi jumlaning birinchisi bilan aloqasini kuchaytiradi. Agar "he" kimga tegishli ekanligi ma'lum bo'lmasa, matnning kogerensiyasi buziladi.

Implikatura va presuppozitsiyalar - badiiy matnlarda ko'p hollarda axborot to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilmay, subtekst orqali yetkaziladi. Pragmatik jihatdan, bu kogerensiyani ta'minlovchi muhim omildir. Pragmatikaning muhim qismi bo'lgan implikatura (bilvosita ma'no) va presuppozitsiyalar (avvaldan qabul qilingan faktlar) badiiy matnni tushunishda muhim ahamiyatga ega. *"She looked at the empty plate and sighed. 'Well, I guess someone enjoyed their meal.'"* Bu misolda aytilgan so'zlar bevosita "somebody ate the food" degan ma'noni anglatmaydi, lekin kontekst orqali o'quvchi buni tushunadi. Bu pragmatik jihatdan kogerensiyani ta'minlovchi element hisoblanadi.

Diskurs markerlar - matnning mantiqiy oqimini ta'minlab, o'quvchiga muallif yoki qahramonning niyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. *"Lisa looked out of the window and sighed. After all, it had been raining since morning, and she still had so much work to do. Obviously, it was going to be a long day."* Bu yerda "After all" diskurs markeri oldingi vaziyatni tushuntirishga xizmat qilmoqda, ya'ni ob-havo va ish hajmi Lisa kayfiyatiga qanday ta'sir qilayotganini ko'rsatadi. "Obviously" esa pragmatik jihatdan o'quvchiga Lisa fikrining aniq va muqarrar ekanligini bildiradi. Ushbu markerlar pragmatik bog'liqlikni kuchaytirib, matnning yaxlitligini saqlaydi.

Kognitiv yondashuv kogerensiyani inson ongida qanday shakllanishini o'rganadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'quvchi matnni idrok etishda avvalgi tajribalari, bilimlari va assotsiativ tafakkuriga asoslanadi.

Mental xaritalar va kognitiv sxemalar - o'quvchilar matnni tushunishda o'z ongidagi tayyor sxemalardan foydalanadi. Masalan, klassik hikoya tuzilmalari (kirish, rivojlanish, kulminatsiya, yechim) o'quvchining matnni yaxlit qabul qilishiga yordam beradi. *"Once upon a time, in a faraway kingdom, there lived a brave knight..."* Bu kabi iboralar o'quvchining ongida "ertak" janri uchun tayyor kognitiv sxema (schema) yaratadi. O'quvchi bu jumladan keyin qahramonning sarguzashtlari bo'lishini intuitiv ravishda kutadi.

Kontekst va assotsiatsiyalar - kogeziy birliklar o'quvchiga matnning turli qismlarini bog'lash va semantik maydon yaratish imkonini beradi. Bu badiiy tasviriy vositalar, metaforalar, allegoriyalar orqali kuchaytiriladi. *"His words were bullets, piercing straight into her heart."* Bu yerda "words" va "bullets" o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri grammatik bog'liqlik yo'q, ammo kognitiv jihatdan o'quvchi "so'zlarning og'riq yetkazishi" tasavvurini hosil qiladi.

Emotsional va psixologik bog'liqlik - kognitiv yondashuv bo'yicha badiiy matnning samarali qabul qilinishi uning o'quvchi ongidagi hissiy reaksiyalar bilan bog'liqdir. Buning uchun muallif kogeziy birliklardan foydalanib, o'quvchini syujetga jalb etadi. *"She stood in the rain, staring at the letter in her hands, ink smudged by tears."* Bu tasvir o'quvchiga matnning dramatik kayfiyatini his qilishga yordam beradi, chunki biz "rain", "tears", va "smudged ink" kabi detallardan qahramonning qayg'uli holatini tushunamiz.

Freytm - ongimizdagi muayyan tushuncha yoki holatga oid oldindan shakllangan bilimlar to'plami. O'quvchi matnni tushunishda o'z tajribasi asosida ushbu freymlardan foydalanadi. *"Jack walked into the classroom and placed his*

books on the desk. The teacher nodded at him, and he quickly took his seat." Bu jumalarni tushunish uchun o'quvchi "classroom" (sinfxona) haqida oldindan shakllangan freymdan foydalanadi. U o'qituvchi, stol, o'quvchilar va dars jarayoni haqida tasavvurga ega bo'lgani sababli, matnning davomida bu tushunchalar ochiq ifodalanmasa ham, ularni ongida to'ldirib oladi.

Skript - odatda ma'lum bir hodisaning oldindan belgilangan ketma-ketligi bo'lib, ular real hayotdagi takrorlanadigan vaziyatlarni tavsiflaydi. *"She entered the restaurant, waited for the waiter to bring the menu, then ordered her favorite dish."* Bu yerda "restaurant" (restoran) skripti ishga tushadi. O'quvchi avtomatik ravishda quyidagi bosqichlarni tasavvur qiladi: *o'tirish, menyu olish, buyurtma berish, ovqat kelishi, to'lov qilish*. Matnda bu bosqichlarning hammasi to'liq tasvirlanmasa ham, o'quvchi tajribasi asosida ularni ongida to'ldiradi.

Ssenariy skriptga o'xshash bo'lib, u ma'lum bir kontekstda qanday hodisalar yuz berishini taxmin qilish imkonini beradi. Lekin ssenariy ko'proq o'zgaruvchan bo'lib, har xil tafsilotlarga ega bo'lishi mumkin. *"Mark was getting ready for his first job interview. He rehearsed his answers, checked his resume once again, and put on his best suit before heading out."* Bu yerda "job interview" (ish suhbatiga tayyorgarlik) ssenariysi ishga tushadi. O'quvchi bu jarayon qanday kechishini biladi va matnda aytilmagan tafsilotlarni ham tushunib yetadi, masalan: Intervyu beruvchi tomonidan savollar berilishi, markning o'zini yaxshi ko'rsatishga harakat qilishi, intervyudan keyin natijani kutishi kabi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, funksional yondashuv kogeziya va kogerensiyani matnning grammatik va semantik bog'liqligi bilan bir qatorda uning amaliy va kommunikativ maqsadi bilan bog'liq ravishda o'rganadi. Ushbu yondashuv matnni faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki uning ishlatilish konteksti va foydalanuvchiga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi. Bu nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik va kommunikatsiya sohalarida ham qo'llaniladi. Badiiy matnlarda komeziv birliklar nafaqat axborotni uzatish, balki matnning stilistik va badiiy ta'sirchanligini oshirishga ham xizmat qiladi. Pragmatik va kognitiv yondashuvlar asosida kogerensiyani o'rganish, uning faqat lingvistik bog'lanish emas, balki kontekst va o'quvchi bilimi bilan ham shakllanishini ko'rsatadi. Shu sababli, ingliz badiiy diskursida kogerensiya va komeziv birliklarning o'zaro bog'liqligi tahlili muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Gillian Brown and George Yule. (1983) *Discourse Analysis*.
2. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). *Cohesion in English*. London: Longman.
3. Halliday, M. A. K. (1994). *An Introduction to Functional Grammar*. London: Edward Arnold.
4. van Dijk, T. A., & Kintsch, W. (1983). *Strategies of Discourse Comprehension*. New York: Academic Press.

M.A. Makhkamova	
LOAN WORDS IN DIFFERENT LANGUAGES Mamatova Nilufar Yorkinovna	460
IMPLICIT EXPRESSION OF IMPERATIVE MOOD IN ADVERTISING TEXTS Ne'matova Iroda Ilhom qizi	463
SYSTEM OF PROSODY AS A SUBSYSTEM OF LANGUAGE (BASED ON THE MATERIAL OF THE CHINESE LANGUAGE) M.A. Nurmukhamedova	465
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ КАК НОВОЕ НАПРАВЛЕНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ Нишонава Гуллола Файзуллаевна	468
МОДАЛ ФЕЪЛЛАРНИ ТАСДИҚ ВА СЎРОҚ ГАПЛАРНИ ЎРГАТИШДА УЧРАЙДИГАН АСОСИЙ ОМИЛЛАР Пўлатова Б.З.	471
ANALYSIS OF SOCIALLY RESTRICTED VOCABULARY AND ITS MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES Raimova Nafosat Olimovna	476
METAPHORICAL REPRESENTATION OF KNOWLEDGE STRUCTURES IN LITERARY TEXTS Rakhmonova Farangiz Abdusattor qizi	481
TERMINLARNING METAFORIK QO'LLANISHI Raximova Maloxatxon Odiljon qizi	485
THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF THE POETICS OF HISTORICAL NOVELS CREATED DURING THE "SOUTHERN RENAISSANCE" IN LINGUISTIC CONTEXT Razzakov Bakhrom Abdugafurovich	489
INGLIZ BADIY DISKURSIDA KOGERENSIYA TA'MINOTIDA KOGEZIV BIRLIKLAR ISHTIROKI Saidova Muxayyo Umedillovna	493
TIL VA JAMIYAT O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK: SOTSIOLINGVISTIKANING DOLZARB MASALALARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA) Saloxiddinova Sayyora Aliqulovna	497
HISTORY OF SOCIOLINGUISTICS AND ITS FUNCTION IN MODERN LINGUISTICS Sayidov Shukrullo Khaliljonovich, Jumabaeva Sevinch Kopjursin qizi	500
THE SYMBOLIC ROLE OF THE COLOURS "GOLD" AND "SILVER" IN ENGLISH PROVERBS Sherdjanova Sevara Qahramanovna	504
METAPHOR AS A TOOL FOR REPRESENTING KNOWLEDGE STRUCTURES Tumparova Guzal Radikovna	507
РОЛЬ ПОНЯТИЯ «ДИСКУРС» В СОВРЕМЕННЫХ НАУКАХ Турсунова Шахноза Наркуловна	511
AGRONIMLAR TOPONIMIKANING ASOSIY SOHASI SIFATIDA Xakimbayeva Ozoda Kalandarovna	514
SOCIALLY STUDYING MUSIC AND MUSICAL SEMIOTICS. G.Y. Yusupova	518
КОММУНИКАТИВНАЯ ЛИНГВИСТИКА КАК РАЗДЕЛ СОВРЕМЕННОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ Юлдашев Фарход Каримбаевич	521